

VII. TRANSPORT VA ALOQA

Yuk tashish. Avtomobil transportida 31,6 mln. tonna yuk tashilgan bo'lib, bu 2022- yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan 0,1 mln. tonnaga ko'pdir. Yuk aylanmasi 828,6 mln. tn-km ga yetdi va bu o'tgan- yilning mos davriga nisbatan 2,5 mln. tn-km ga ko'p demakdir.

Yakka tartibdagi tadbirkorlarning avtomobil transportining yuk aylanmasi 2022- yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan 103,5 % bo'lib, 183,0 mln. tn-km ni tashkil qildi. Yuk aylanmasining umumiy hajmida xususiy yuk tashuvchilarning ulushi 22,1 % ni tashkil etdi.

Iqtisodiyot tarmoqlarida kichik biznesning yuk tashish bo'yicha ulushi 91,5 % ni tashkil etgan.

Yuk tashish va yuk aylanmasi transport turlari bo'yicha ifodalanishi

	2023- yil yanvar-dekabr	2022- yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan, % da
Tashilgan yuk, mln. tn.	31,6	100,2
<i>shu jumladan:</i>		
Avtomobil transportida	31,6	100,2
Yuk aylanmasi, mln. tn-km.	828,6	100,3
<i>shu jumladan:</i>		
Avtomobil transportida	828,6	100,3

Yo'lovchi tashish. 2023- yil yanvar-dekabr oylarida barcha transport turlari tomonidan 457,5 mln. kishi tashilgan bo'lib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning mos davriga nisbatan 101,7 % ga ko'paygan.


Yo'lovchi aylanmasi hajmi 9 306,8 mln. yo'lovchi-km, o'sish sur'ati o'tgan yilning mos davriga nisbatan 104,3 % ni tashkil etdi.

Yirik korxonalar bo'yicha:

Viloyatda kuzatilayotgan davrda avtotransport ishi bo'yicha hajmli korxonalar soni 52 tani tashkil etib, ular tomonidan quyidagi asosiy ko'rsatkichlar shakllandi:


Tashilgan yuklar hajmi 1,7 mln. tonna, o'sish sur'ati o'tgan yilning mos davriga nisbatan 75,3 % ni tashkil etdi (jami viloyatda tashilgan yuklar hajmidagi ulushi 5,4 %);

Yuk aylanmasi hajmi 68,4 mln. tn-km, o'sish sur'ati o'tgan- yilning mos davriga nisbatan 81,8 % ni tashkil etdi (jami viloyat yuk aylanmasi hajmidagi ulushi 8,2 %);



Tashilgan yo'lovchilar hajmi 6,4 mln. yo'lovchi, o'sish sur'ati o'tgan yilning mos davriga nisbatan 87,9 % ni tashkil etdi (jami viloyatda tashilgan yo'lovchilar hajmidagi ulushi 1,4 %);

Yo'lovchi aylanmasi hajmi 347,6 mln. yo'lovchi-km, o'sish sur'ati o'tgan yilning mos davriga nisbatan 78,1 % ni tashkil etdi (jami viloyat yo'lovchi aylanmasi hajmidagi ulushi 3,7 %).



Yo'lovchi tashish aylanmasi ushbu davrda 104,3 % ga ko'payib, 9 306,8 mln. yo'lovchi-km ni tashkil qildi.



9 306,8 mln yo'lovchi-km



104,3 %

Iqtisodiyot tarmoqlarida kichik biznesning yo'lovchi tashish bo'yicha ulushi 97,5 % ni tashkil etgan.

Kichik biznesning yo'lovchi
tashishda ulushi

• 97,5 %

Xususiy yo'lovchi tashuvchilar avtomobil transportida yo'lovchi aylanmasi 2022-yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan 103,8 % bo'lib, 7 828,7 mln. yo'lovchi-km ni tashkil qildi. Yo'lovchi aylanmasining umumiy hajmida xususiy yo'lovchi tashuvchilarning ulushi 84,0 % ni tashkil etdi.